

KONFERENSIYALAR UZ

— ANJUMANLAR PLATFORMASI

O'ZBEKISTON – 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA'LIM ISTIQBOLLARI

**II RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYA MATERIALLARI**

IYUN, 2025-YIL



O‘ZBEKISTON — 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA’LIM ISTIQBOLLARI

**II RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYASI MATERIALLARI**

2025-yil, iyun

TOSHKENT-2025

ISBN 978-9910-09-204-6

O'ZBEKISTON – 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA'LIM ISTIQBOLLARI. II Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. – Toshkent: Scienceproblems team, 2025. – 138 bet.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.uz/uzbekistan-2030>

Konferensiya tashkilotchisi: “Scienceproblems Team” MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2025-yil, 23-iyun

Mas'ul muharrir:

Isanova Feruza Tulqinovna

Annotatsiya

Mazkur nashrda “O'zbekiston — 2030: innovatsiya, fan va ta'lim istiqbollari” nomli II Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi doirasida taqdim etilgan ilmiy maqolalar to'plami jamlangan. Unda O'zbekistonning turli oliy ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalari, tarmoq tashkilotlari, mustaqil tadqiqotchilar tomonidan taqdim etilgan ijtimoiy-gumanitar, iqtisodiyot, huquq, biologiya, tibbiyot va boshqa sohalarga oid maqolalar kiritilgan. Maqolalarda ilm-fanning zamonaviy yo'nalishlari, innovatsion texnologiyalar, ta'lim islohotlari hamda barqaror taraqqiyotga oid masalalar muhokama qilingan. To'plam akademik izlanishlar, amaliy tajribalar va ilmiy xulosalarni birlashtirgan holda, fanlararo integratsiyani chuqurlashtirish va ilmiy hamkorlikni kuchaytirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: ilmiy-amaliy konferensiya, innovatsiya, fan va ta'lim, O'zbekiston 2030, barqaror rivojlanish, ilmiy izlanishlar, fanlararo integratsiya, ilmiy hamkorlik, texnologik taraqqiyot, zamonaviy ta'lim.

ISBN 978-9910-09-204-6

Barcha huquqlar himoyalangan.

© Scienceproblems team, 2025-yil

© Mualliflar jamoasi, 2025-yil

MUNDARIJA

FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI

Kamolova Dilnavoz, Shomurodova Shahzoda

PAST TEMPERATURALAR HOSIL QILISH VA GAZLARNI SUYULTIRISH METODLARI5-10

TEXNIKA FANLARI

Mirabdullayev Fayzullo, Tursunov Otabek

5G TEXNOLOGIYASIDAGI XAVFSIZLIK MUAMMOLARINING TAHLILI 11-18

Tursunov Otabek, Shakarov Muhiddin

ZAMONAVIY SIMMETRIK SHIFRLASH ALGORITMLARINI CHIZIQLI KRIPTOTHLILI 19-27

TARIX FANLARI

Ergasheva Mohichexra

ROSSIYA IMPERIYASI SIYOSATINING ZARAFSHON VOHASIDAGI ETNIK MUVOZANATGA

TA'SIRI: TARIXIY MANBALAR ASOSIDA TAHLIL 28-31

Oralov Dostonbek

BIRINCHI JAHON URUSHINING TURKISTON O'LKASIDAGI IJTIMOY-SIYOSIY

JARAYONLARGA TA'SIRI 32-35

IQTISODIYOT FANLARI

Арипова Анна

ЦИФРОВИЗАЦИЯ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЁТА КАК ФАКТОР ПОВЫШЕНИЯ

ЭФФЕКТИВНОСТИ СДЕЛОК СЛИЯНИЯ И ПОГЛОЩЕНИЯ 36-40

Шарипов Жамшид, Нуридинов Рамзидин

СУНЬИЙ ИНТЕЛЛЕКТ: ТАЪЛИМ СИФАТИНИ ОШИРИШ ДРАЙВЕРИ 41-48

Авдошкина Олеся

ГОСУДАРСТВЕННАЯ ПОДДЕРЖКА МАЛОГО БИЗНЕСА ЧЕРЕЗ КРЕДИТНЫЕ

ИНСТРУМЕНТЫ: НА ПРИМЕРЕ НАМАНГАНСКОЙ ОБЛАСТИ 49-56

Azamatov Otabek

PROBLEMS IN IMPROVING THE COMPETITIVENESS OF SMALL BUSINESSES AND PROPOSED

SOLUTIONS 57-61

Eraliyev Sardorjon

AGROBIZNESDA INVESTITSIYA FAOLIYATINI MOLIYALASHTIRISHNING ZAMONAVIY

USULLARI 62-64

Isomuxamedov Akbarjon

KICHIK BIZNES SUBYEKTLARIDA XARAJATLAR VA DAROMADLAR HISOBINI TASHKIL ETISH

VA TAHLIL QILISH 65-67

FILOLOGIYA FANLARI

Mamatova Feruza

ANTROPOFENOMENLAR: LINGVOKOGNITIV, LINGVOMENTAL, DINAMIK VA STATIK

TURLARI 68-73

Yuldasheva Xurshida

O'ZBEK ADABIY MEROSINING RAQAMLI PLATFORMALARDA O'RGANILISHI: IBN SINO

MISOLIDA 74-76

<i>Abduvaliyeva Kamola</i> “SHAJARAYI TURK” ASARIDAGI ETNONIMLARNING GRAMMATIK TUZILISHI VA YASALISHI	77-82
---	-------

GEOGRAFIYA FANLARI

<i>Abdirayimova Ozoda</i> SURXONDAYO VILOYATIDA BUDDIZM OBIDALARI ASOSIDA ZIYORAT TURIZMINI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI	83-86
--	-------

YURIDIK FANLAR

<i>Alimjonov Fayozbek</i> LITSENZIYALASH TUSHUNCHASI, TIZIMLARI VA ULARNING TARIXIY RIVOJLANISHI	87-91
<i>Muradullayeva Sevinch</i> SOLIQ NAZORATINI AMALGA OSHIRISHNING NAZARIY-HUQUQIY ASOSLARI	92-96
<i>Abdullaeva Sabokhat</i> ISSUES OF IMPROVING INTERNATIONAL LEGAL MECHANISMS TO COMBAT TRANSNATIONAL CRIMES TARGETING CRYPTOASSETS	97-105

PEDAGOGIKA FANLARI

<i>Haqberdiyev Baxtiyor, Ismag'ilova Madinabonu, Imomnazarova Durdona</i> TASVIRIY SAN'AT VA MUHANDISLIK GRAFIKASI MUTAXASSISLARINING GRAFIK VA IJODIY KOMPETENTLIGINI SHAKLLANTIRISH	106-108
<i>Разикова Дилфуза</i> ЭФФЕКТИВНОСТЬ ДИАГНОСТИЧЕСКОГО ОЦЕНИВАНИЯ ПРИ ОБУЧЕНИИ СТУДЕНТОВ НЕФТЕГАЗОВОГО ПРОФИЛЯ	109-112
<i>Salimova Bakhora</i> TEACHING METHODOLOGY: PRINCIPLES, APPROACHES, AND INNOVATIONS	113-117
<i>Bakhronova Mahliyo</i> “DEVELOPING PROFESSIONAL COMPETENCE IN TEACHING ENGLISH”	118-123
<i>Bekmuradova Gulnoza</i> TALABALARNI ILMIY-TADQIQOT ISHLARGA JALB ETISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK VA ILMIY-METODIK ASOSLARI	124-129
<i>Rahimov Javohir</i> DUAL TA'LIMNI TASHKIL ETISHDA 4K VIDEO STUDIYASIDAN FOYDALANISH VA VIDEODARSLARNI YOZISHNING DASTURIY METODIK TA'MINOTI	130-133
<i>Юсупова Сабохат</i> ЗНАЧЕНИЕ РАЗВИТИЯ НАУКИ И ОБРАЗОВАНИЯ В ПРОГРЕССЕ ОБЩЕСТВА	134-137

BIRINCHI JAHON URUSHINING TURKISTON O'LKASIDAGI IJTIMOY-SIYOSIY JARAYONLARGA TA'SIRI

Oralov Dostonbek Rustam o'g'li

Tayanch doktorant, Qarshi Davlat Universiteti

E-mail: dossi.oralov@gmail.com

Qarshi, O'zbekiston

Annotatsiya. Ushbu maqolada birinchi jahon urushining Turkiston o'lkasidagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga ta'siri, Turkiston general-gubernatorligi, Turkistonda milliy ozodlik kurashlari haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: Turkiston, general-gubernator, milliy ozodlik kurashlari, generallar, batolyon, uskuna.

THE IMPACT OF THE FIRST WORLD WAR ON SOCIO-POLITICAL PROCESSES IN THE TURKESTAN REGION

Oralov Dostonbek Rustam o'glu

Researcher, Karshi State University

Karshi, Uzbekistan

Abstract. This article discusses the impact of the First World War on socio-political processes in the Turkestan region, the Governor-General of Turkestan, and the national liberation struggles in Turkestan.

Key words: Turkestan, Governor-General, national liberation struggles, generals, battalion, equipment.

DOI: <https://doi.org/10.47390/978-9910-09-204-6/uzb-05>

XIX asr oxiri - XX asr boshlarida keskinlashgan dunyoni qaytadan bo'lib olish uchun bo'lgan kurash Yevropa davlatlarining ikki guruhi shakllanishiga olib keldi. Birinchi guruhda Germaniya boshchiligidagi Avstro-Vengriya, Turkiya va Bolgariya bor edi. Ikkinchi guruhga esa Angliya, Fransiya va podsho Rossiyasi kirgan edi. Keyinroq unga Italiya, Yaponiya, Amerika Qo'shma Shtatlari va boshqa davlatlar qo'shildilar ¹. [1;18-19-b]

XX asrning boshlanishi Turkiston o'lkasi tarixida eng jiddiy burilish yuz bergan davrlardan biriga to'g'ri keldi. O'tgan o'n yilliklar mobaynida o'lka bag'rida yetilgan jarayonlar ijtimoiy hayot yuzasiga qalqib chiqib, uning negizini qamrab olgan chuqur tanglikni ochib tashladi. Tashqi va ichki omillar tufayli vujudga kelgan bu jarayonlar o'z tabiatiga ko'ra bir xil emas, lekin o'zining yemiruvchilik ta'siri jihatidan bilan yaxlit edi². [2;12-b]

XX asr boshlarida hozirgi O'zbekiston hududi tarkibiga 3 davlat birlashmasi: Rossiya O'rta Osiyoni zabt etganidan keyin tuzilgan va uning tarkibiga mustamlaka sifatida qo'shib olingan Turkiston general-gubernatorligi, shuningdek, yuzaki ravishda mustaqil bo'lgan, ammo Rossiyaga qaram hisoblangan Buxoro amirligi va Xiva xonligi kirar edi. O'sha vaqtda hududining kattaligi va aholisining ko'pligi jihatidan Turkiston o'lkasi deb atalgan Turkiston general-gubernatorligi yirik sanalardi. Uning tarkibiga Samarqand, Sirdaryo, Farg'ona, Kaspiyorti va Yettisuv viloyatlari kirar edi. O'lkadagi besh milliondan ko'proq aholining asosiy

¹ https://uz.wikipedia.org/wiki/Birinchi_jahon_urushi.

² Ergashev. Sh. Jahon tarixi III- kitob. T., 2020. 12-bet.

ko'pchilik qismini o'zbeklar, tojiklar qirgizlar, qozoqlar, turkmanlar va boshqa yerli xalqlar tashkil etardi. Ularning hammasi islom diniga e'tiqod qiluvchi musulmonlar edi. Biroq o'sha vaqtda musulmon aholi tushunchalar diniy mazmunga emas, balki etnik mazmunga ham ega bo'lib, oddiy mahalliy aholini Rossiyadan ko'chirib keltirilgan rusiyzabon aholidan ajratish uchun foydalanilar, ko'chirib keltirilganlar soni o'lkadagi butun aholining o'ndan bir qismidan ham kam edi¹. [3; 12-b]

Ko'pchilik aholi turmush darajasining pasayishi va uning qashshoqlashuvi bilan uyg'unlashib ketgan davomli turg'unlikka olib kelgan omillarning birinchi qatorida Turkiston jamiyatini g'arb usulida zo'rlik bilan yangilash turardi.

Turkiston o'lkasi Rossiyaga foyda keltirish mumkingina bo'lib qolmay, balki majbur hamdir, deyiladi. Buning uchun vaqtni qo'ldan boy bermasdan qat'iylik bilan quyidagi tadbirlarni amalga oshirish tavsiya qilindi:

1. Olinadigan boyligiga qaramasdan, foydalanishdan chetda qolgan yerlarni davlat hisobiga o'zlashtirishni tezlashtirish;
2. Eng unumdor yerlar hisobiga qishloq xo'jaligi sanoatini rivojlantirish;
3. O'lkaning tog' boyliklaridan foydalanish;
4. O'lkani ruslar tomonidan ekspluatatsiya qilishni kuchaytirishga keng imkoniyat yaratib berish;

5. Xalq maorifini rus uslubi bo'yicha rivojlantirish;

6. O'lkani dastlab biz bosib olgan davrdagi o'rnatilgan tashkiliy boshqaruv yo'nalishlarini qo'llab-quvvatlash lozim². [4;259-b]

1914-yil iyulidan to 1917-yil fevrali davomida Turkistonda boshliqlar almashdi: uch nafar muvaqqat generallar Flug, Yerofeyev, Martson va to'rtinchisi «qonuniy» A.N.Kuropatkin Gubernatorlar orasida Yerofeyev alohida ajralib turardi³. [5;200-b.] Uning bir yarim oylik ma'muriy ijodining gultoji 1916-yil 21-iyuldagi buyrug'idir, jumladan unda shunday deyilgan: «Tuzem aholining rus hokimiyati oldida ta'zim bajo keltirishi belgisi sifatida tuzemlarning hammasi barcha muassasalar ofitserlari va amaldorlariga ta'zim qilib izzat-ikrom bilan salom bersinlar»⁴. [6;120-b.]. Mahalliy aholi ot va aravada shoshmasdan yurishlari, qarshidan kelayotgan mustamlaka ma'muriyati amaldoriga to'xtab ta'zim qilishlari kerak edi. Amaldorlar joylarda ruslar boradigan va sayr qiladigan jamoat joylariga mahalliy aholi kirishini man qilingan hollar ham uchraydi. Yerofeyevning «majburiy xushmuomalalik» to'g'risidagi bu buyrug'i Rossiya bo'ylab keng mashhur bo'ldi. Dumasining sessiyalaridan birida deputat Ja'farov buni «rus hokimiyatini balchiqqa qorib tashlash» tariqasida baholagan edi. General-gubernator lavozimiga yangi, ancha moslashuvchan, uncha dag'al bo'lmagan nomzodni shoshilinch izlashga to'g'ri keldi va tanlov buning uchun harakatdagi armiyadan chaqirilgan A.N.Kuropatkin chekiga tushdi. Taniqli tarixchi M.N.Pokrovskiy uning Turkiston general-gubernatori etib tayinlanishini shunday talqin qiladi: «1917-yilga kelib janob Kuropatkin sahnadan, podsho Rossiyasining eng mas'ul mansablaridan allaqachon tushib qolgan edi. U

¹ Шамсутдинов. Р. Каримов. Ш. – Ватан тарихи 3-китоб Андижон, 2004. 12-бет.

² Шамсутдинов, Ш. Каримов. – Ватан тарихи 2 китоб Андижон, 2004. 259-бет.

³ N. Abdurahimova, F.Ergashev Turkistonda chor mustamlaka tizimi- T., 2002. 200-bet.

⁴ Ковалев П.А. Революционная ситуация 1915—1917 г.г. и её проявления в Туркестане. Тошкент, 1971, 120-бет.

boshqa siyosat yurita olmaydigan strateg sifatida u haqida hech kim so'z yuritmasdi. Frontlardan biriga qo'mondonlik qilishga urinishi ham natijasiz tugadi hamda urush va imperiya nihoyasida keksa general uchun butunlay oddiy Kuropatkin frontdan minglab verst yiroqda «Turkiston general-gubernatori» maqomi bilan qanoatlanishi lozim edi. Bu yerda uning vazifasi frontdagiga qaraganda politsiyaga xos edi, sartlar va qirg'izlar bilan jang qilish nemislar bilan urushishdan ko'ra osonroq edi, bir necha kishini dorga tortib, orzulari amalga oshmagan mikado g'olibi 1916-yilgi O'rta Osiyo inqilobini ajoyib bir tarzda tor-mor etdi»¹. [7;23-b.]

Darhaqiqat, Turkistondagi 1916-yilgi milliy-ozodlik harakatini bostirishga Kuropatkin 1916-yil yozidan to 1917-yil davomida harakatda bo'lgan yirik harbiy kuchlardan foydalandi. Rasmiy ma'lumotlarga qaraganda, 14 batalyon, 42 uskuna, 69 pulemyot ishga solingan edi². [8;118-b.]. Uch mingdan ortiq odam sudga tortilgandi. Shu bilan birga, borgan sayin chuqurlashayotgan siyosiy va iqtisodiy tanazzul sharoitida Kuropatkin mustamlaka ma'muriyatining mahalliy aholi zodagonlari bilan «sulh tuzishi» kompaniyasini boshlab yuborishga urinib ko'rganki, bu narsa uning bir qancha farmonlarida o'z aksini topgan. Masalan, milliy burjuaziya vakillari frontorti ishlariga aholining ba'zi qatlamlarini yollashdan ozod qilish bo'yicha «sinalmagan» viloyat, uyezd va shahar qo'mitalari tarkibiga jalb etilgandi. Ular orasida ruhoniylar vakillari, faxriy va shaxsan obro'li kishilar, davlat muassasalari amaldorlari va xizmatlari bo'lgan. Ishchilarni ro'yxatga olish joyi bo'yicha yollash amaliyoti ma'qullangan edi. Nihoyat, mahalliy aholini frontorti ishlariga safarbar etishni 1916-yil 15-sentabrga qadar kechiktirish to'g'risida qaror qabul qilingan edi. Bundan tashqari, Turkiston o'lkasini boshqarish to'g'risidagi yangi nizomni ishlab chiqishga navbatdagi kirishilgan edi. Biroq bu chora-tadbirlarning barchasi tub aholi yashovchi viloyatlardagi norozilik alangasini vaqtincha o'chirdi, xolos, uning qozoq, qirg'iz, turkman yerlariga tarqalishini to'xtatib qola olmadi. 1917-yil mart oyida Kuropatkin Muvaqqat hukumat Bosh komissari lavozimiga ko'tarildi, ammo harbiy-frontorti ishlariga safarbar etish eski siyosatini davom ettirdi va 1917-yil iyuniga qadar qo'shimcha 80 ming odam jo'natishga va'da berdi. Go'yoki ruslarga hujum qilishga tayyorgarlik ketayotgani haqida mishmish tarqatgan Kuropatkin va uning yordamchilari Toshkentdagi qurol-aslaha arsenalidan badavlat rus aholiga katta miqdorda vintovkalar va o'q-dorilar berish to'g'risida farmoyish berishdi. Ana shu operatsiya ustida qo'lga tushgach, Kuropatkin buni muqaddam armiya ehtiyojlari uchun tortib olingan 18465 vintovkaning shunchaki qaytarib berilishi deb izohladi va bu tabiiy operatsiya oxiriga yetkazilmadi, deb bayonot berdi. Shuning barobarida, shavqatsiz inflyatsiya va iqtisodiy tanazzulni jilovlash bo'yicha tadbirlar ko'rilmadi. Xalqning ahvoli og'irlashib bordi, milliy zulm saqlanib qoldi. Joylarda esa podshohning avvalgi ma'murlari kelishgan va ishlayotgan edilar. Bularning barchasi eski hokimiyatni almashtirish uchun xalq harakatining o'sishini keltirib chiqardi. 1917-yil 30-martda Kuropatkin lavozimidan chetlatildi va uy qamog'iga mahkum etildi. 4-aprelda esa unga, uning yordamchisi Yerofeyevga va okrug shtabining boshlig'iga Turkiston sarhadidan chiqib ketishga ruxsat berildi.

¹ Узбекистон ССР тарихи. Учинчи жилд. Бош мухддррир И.М.Муминов. - Т.: Фан, 1971. - 23-бет

² Восстания 1916 г. В азиатской России: неизвестное об известном (К 100-летию Высочайшего повеления 25 июня 1916 г.) Коллективная монография Москва 2017. С 118.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. https://uz.wikipedia.org/wiki/Birinchi_jahon_urushi.
2. Ergashev. Sh. Jahon tarixi III- kitob. T., 2020. 12-bet.
3. Шамсутдинов. Р. Каримов. III. – Ватан тарихи 3-китоб Андижон, 2004. 12-бет.
4. Шамсутдинов, III. Каримов. – Ватан тарихи 2 китоб Андижон, 2004. 259-бет.
5. N. Abdurahimova, F.Ergashev Turkistonda chor mustamlaka tizimi- T., 2002. 200-bet.
6. Ковалев П.А. Революционная ситуация 1915—1917 г.г. и её проявления в Туркестане. Тошкент, 1971, 120-бет.
7. Узбекистон ССР тарихи. Учинчи жилд. Бош мухдррир И.М.Муминов. - Т.: Фан, 1971. - 23-бет
8. Восстания 1916 г. В азиатской россии: неизвестное об известном (К 100-летию Высочайшего повеления 25 июня 1916 г.) Коллективная монография Москва 2017. С 118.

O‘ZBEKISTON — 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA’LIM ISTIQBOLLARI

I RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI
2025-yil, 23-iyun

Mas’ul muharrir: *F.T.Isanova*
Texnik muharrir: *N.Bahodirova*
Diszayner: *I.Abdihakimov*

**O‘ZBEKISTON — 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA’LIM
ISTIQBOLLARI. II Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi
materiallari.** – Toshkent: Scienceproblems team, 2025. – 138 bet.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.uz/uzbekistan-2030>

Konferensiya tashkilotchisi: Scienceproblems Team

Konferensiya o‘tkazilgan sana: 2025-yil, 23-iyun

ISBN 978-9910-09-204-6

Barcha huquqlar himoyalangan.
© Scienceproblems team, 2025-yil.
© Mualliflar jamoasi, 2025-yil.